

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM SOHASI RIVOJI VA ISTIQBOL IMKONIYATLARI

Abdullaxo'jayev Muhammadyusuf

Ilmiy rahbar: **Sherzod Iskandarov**
Toshkent davlat tibbiyot universiteti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi tarixiy ildizlardan boshlab bugungi kunga qadar bosib o'tgan rivojlanish yo'li tahlil qilinadi. Mustaqillikdan so'ng amalga oshirilgan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Harakatlar strategiyasi" hamda "Raqamli ta'lim" dasturi asosida ta'lim tizimining modernizatsiyasi ko'rib chiqiladi. Hozirgi davrda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchilar malakasini rivojlantirish va xalqaro reytinglarda O'zbekistonning o'rnini mustahkamlash masalalari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar. *O'zbekiston ta'lim tizimi, ta'lim islohotlari, jadidchilik harakati, raqamli ta'lim, innovatsion pedagogika, xalqaro hamkorlik, uzluksiz ta'lim.*

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o'rin tutadi. Ta'lim sohasidagi islohotlar nafaqat zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga, balki milliy qadriyatlar asosida ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalashga ham xizmat qilib kelmoqda. Ushbu maqolada O'zbekiston hududida qadimda mavjud bo'lgan davlatlarning ta'lim siyosati, mustaqillikkacha bo'lgan davrda ta'limga munosabat, mustaqillikdan keyingi yillarda amalga oshirilgan islohotlar, hozirgi zamon ta'lim tizimining ayrim muammolari va ularning ehtimoliy yechimlari tahlil qilinadi. Shuningdek,

yaqin kelajakda O‘zbekiston ta’lim sohasida kutilayotgan rivojlanish yo‘nalishlari haqida ham fikr yuritiladi.

O‘zbekiston hududida ta’lim va ma’rifat qadim zamonlardan buyon jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Qadimgi So‘g‘d, Baqtriya va Xorazm davlatlarida yozuv, hisob, tabobat, astronomiya kabi fanlarga oid bilimlar o‘rgatilganining arxeologik topilmalar orqali tasdiqlanishi buning yaqqol misolidir. Xususan, Xorazmdagi Tuproqqal‘a va Qo‘yqirilganqal‘a yodgorliklaridan topilgan sopol bitiklar va yozuv asboblari bu o‘lkada o‘quv jarayonlari qadim davrlardan buyon mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi¹.

O‘rta asrlarda Movarounnahr ilm-fan markaziga sifatda dunyo g‘tarixda o‘ziga xos bir makondir. Shu sababli ham Buxoro, Samarqand va Urganch madrasalarida shariat fanlari bilan bir qatorda falsafa, matematika, astronomiya va mantiq fanlari ham o‘qitilgan².

XIX–XX asr boshlarida jadidchilik harakati ta’lim tizimida yangi davrni boshlab berdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma’rifatparvarlar “yangi usul” maktablarini tashkil etib, zamonaviy fanlarni o‘qitishni yo‘lga qo‘yishdi³. Shunday qilib, tarixiy bosqichlarda shakllangan tajriba mustaqillikdan keyingi islohotlar uchun poydevor bo‘lib xizmat qildi. Ayniqsa, ular tomonidan ilgari surilgan mulohazalar diqqatga sazvordir. Shu bilan birga xalqning ong va shu’rini tiklash ishlarga o‘z xissalarini qo‘shishdi.

¹. (Tolstov, 1948).

². (Normirzayeva, 2023).

³. (Xo‘jayev, 2019).

1991-yilda O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mustaqillik yillarida mamlakatda milliy ta’lim modelini shakllantirish, yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan ta’minlash va ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Jumladan 1992-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida har bir fuqaroning ta’lim olish huquqi kafolatlandi. 1997-yil esa ta’lim tizimi tarixida muhim bosqich bo‘lib, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Mazkur hujjatning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, uzluksiz 12 yillik ta’lim tizimi joriy qilindi, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi yangi bosqichga ko‘tarildi⁴.

2020-yilda esa “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri qabul qilinib, unda raqamli ta’lim, masofaviy o‘qitish, innovatsion ta’lim texnologiyalari, “hayot davomida ta’lim” tamoyili kabi yangiliklar aks etdi⁵. Ta’limning barcha turlar tashkil etildi. Xususan sirtqi, kechki talim shakllarining tashkil etilishi aholining katta qismini ilm fanga bo‘lgan e’tibor namunasidir. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra , bugungi kunda aholi yoshlarining 46% qismi oliy ta’lim talabalari hisoblanadi.

2022–2024-yillar davomida esa O‘zbekistonda “Raqamli ta’lim” milliy dasturi bosqichma-bosqich joriy etilib, elektron ta’lim platformalari, interaktiv portal va sun’iy intellekt asosidagi o‘qitish tizimlari rivojlantirildi.⁶

⁴ O‘zbekiston Respublikasi, 1997).

⁵ (O‘zbekiston Respublikasi, 2020).

⁶ UNESCO (2023)

Ma'lumotlariga ko'ra, 2018–2023-yillar oralig'ida O'zbekistonda ta'limga ajratilgan byudjet xarajatlari 1,8 barobarga oshgan. Bu esa davlatning ta'lim sohasiga strategik yondashuvini ko'rsatadi.

O'zbekiston ta'lim tizimi so'nggi yillarda sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, hali ham yechimi kutilayotgan qator muammolar mavjud. Ularning asosiylari — ta'lim sifati, o'qituvchilar malakasi, moddiy-texnik baza va innovatsion yondashuvlar yetishmasligidir.

So'nggi yillarda o'qituvchilarning oylik maoshi oshirilgan, lekin malaka oshirish kurslarining sifatini tubdan yaxshilash talab etilmoqda. 2023-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3775-son qarorida pedagoglarni doimiy o'qitish, malaka darajasiga ko'ra attestatsiyadan o'tkazish tizimi yo'lga qo'yilgan⁷

Ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim istiqbol yo'nalishlaridan biridir. “Raqamli ta'lim” milliy dasturi doirasida elektron o'qitish platformalari, virtual laboratoriyalar va sun'iy intellekt asosidagi baholash tizimlari ishlab chiqilmoqda⁸ (UNESCO, 2023). Ammo internet infratuzilmasi va texnik ta'minotning yetarli emasligi ayrim hududlarda bu jarayonni sekinlashtirmoqda. Shu bilan bir qatorda ta'limning yangi iunfira tuzimlasini shakllantishini jadallik bilan joriy etish muhimdir.

O'zbekiston ta'lim tizimining muvaffaqiyati o'qituvchi shaxsining nufuzi, ilmiy-tadqiqotga asoslangan ta'lim, raqamli texnologiyalar va xalqaro hamkorlikning rivojlanishiga uzviy ravishda bog'liq bo'ladi. Shuningdek, ta'lim

⁷ (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2023).

⁸

jarayonida yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash va o'qituvchilarning ijtimoiy maqomini yanada oshirish — yaqin istiqboldagi eng muhim ustuvor vazifalar sirasiga kiradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi tarixan chuqur ildizlarga ega bo'lib, uning rivojlanish jarayoni jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Qadimda shakllangan o'quv an'analari, o'rta asr madrasalari va jadidchilik davri islohotlari bugungi milliy ta'lim tizimining poydevorini yaratib berdi. Ayniqsa mustaqillik yillarida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar — “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Harakatlar strategiyasi” va “Raqamli ta'lim” dasturi — mamlakatda uzluksiz, zamonaviy va raqobatbardosh ta'lim tizimini shakllantirishda muhim rol o'ynadi. O'zbekiston ta'lim tizimining samaradorligini oshirish uchun o'qituvchi shaxsining nufuzini mustahkamlash, ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish, shuningdek, xalqaro tajribani keng joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asqarov, A. (2008). O'zbekiston tarixi: Qadimgi davrlardan hozirgi kungacha”
2. O'zbekiston Respublikasi. (1997). “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun. Toshkent: Adliya vazirligi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2017) *Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida*
4. O‘zbekiston Respublikasi. (2020). “*Ta’lim to‘g‘risida*”gi Qonun (yangi tahrir). <https://lex.uz>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). PQ–3775-son qarori: *Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida*. <https://lex.uz>
6. Tolstov, S. P. (1948). *Ancient Khorezm Civilization*. Moscow: Academy of Sciences of the USSR.
7. Normirzayeva, G. E. (2023). *History of the Medieval Educational System of Bukhara. Modern Journal of Social Sciences and Technology*, 3(8), 202–204.
8. Khodjaev, M. (2019). *The Jadid Movement and Modern Education in Turkestan. Central Asian Review*, 31(2), 85–98.
9. UNESCO. (2023). *Education for All Global Monitoring Report: Uzbekistan Case Study*.
10. OECD. (2023). *Education Policy Outlook: Uzbekistan 2023*. OECD Publishing.